

## O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

**Raupov Shuxrat Soyibovich**

Buxoro davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Maqolada O‘zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanish tendensiyalari asosiy statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda turistik oqimlar dinamikasi, infratuzilma kengayishi, transport tizimi rivoji hamda hududlar kesimidagi nomutanosibliklar o‘rganildi. SWOT tahlil orqali sektorning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlari aniqlandi. Natijalar turizmning iqtisodiy o‘shishga qo‘shgan hissasi ortganini, infratuzilma sezilarli kengayganini ko‘rsatdi. Hududlararo tafovutlar va ekologik omillar muhimligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari barqaror turizmni rivojlantirishda strategik qarorlar qabul qilishda qo‘llanishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** turizm, barqaror rivojlanish, infratuzilma, statistik tahlil, hududiy rivojlanish, SWOT tahlil

### **Аннотация**

В статье были проанализированы тенденции устойчивого развития туристического сектора Узбекистана на основе ключевых статистических показателей. В исследовании изучены динамика туристических потоков, развитие инфраструктуры, транспортной системы и региональные диспропорции. С использованием SWOT-анализа определены сильные и слабые стороны, возможности и угрозы отрасли. Результаты показали рост вклада туризма в экономику и значительное расширение инфраструктуры. Одновременно выявлена значимость региональных различий и экологических факторов. Полученные результаты могут быть использованы при разработке стратегических решений по обеспечению устойчивого развития туризма.

**Ключевые слова:** туризм, устойчивое развитие, инфраструктура, статистический анализ, региональное развитие, SWOT-анализ

### **Abstract**

The article analyzed the trends of sustainable development of the tourism sector in Uzbekistan based on key statistical indicators. The study examined the dynamics of tourist flows, infrastructure expansion, transport development, and regional disparities. A SWOT analysis identified strengths, weaknesses, opportunities, and threats of the sector. The results showed an increasing contribution of tourism to economic growth and significant infrastructure development. Regional imbalances and environmental factors were confirmed as important determinants. The findings can be applied in the formulation of strategic decisions aimed at ensuring sustainable tourism development.

**Keywords:** tourism, sustainable development, infrastructure, statistical analysis, regional development, SWOT analysis

## KIRISH

O‘zbekiston turizm sektori 2016-yildan hozirgacha bo‘lgan muddatda sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va dunyo miqyosidagi eng tez rivojlanayotgan turizm marshrutlaridan biriga aylandi. Ushbu o‘shning miqdoriy dinamikasini tushunish sektorning hozirgi barqarorlik darajasini tushunish va takomillashtirish mexanizmlarini aniqlash uchun juda muhimdir. Shuning uchun tadqiqot davomida turizm ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy ko‘rsatkichlarning keng qamrovli statistik tahlil qilish maqsadga muvofiq deb bildik. Ushbu tadqiqotlar empirik asosni yaratish, muammolar va imkoniyatlarni aniqlash uchun juda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda turizmning kengayishi uchun poydevor 2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev ma‘muriyati davrlarida boshlangan tizimli islohotlar orqali yaratildi. Xalqaro sayyohlar soni 2016-yildagi 2 milliondan 2019-yilda 6,7 millionga oshib, (Pandemiyadan oldingi davr) to‘rt yil ichida 3 barobarga kengaydi. Ushbu o‘sh vizalarni liberallashtirish siyosati, infratuzilma investitsiyalari va Ipak yo‘li merosi yo‘nalishlarini faol xalqaro miqyosda targ‘ib qilish bilan bog‘liq deb bilamiz. 2019-yilga kelib turizmdan tushgan daromad 1,5 milliard dollarga yetib, sektorning YaIMga qo‘shgan hissasi 2,2% ni tashkil etdi [1].

## ADABIYOTLAR SHARHI

Akademik tadqiqotlar barqaror turizm konsepsiyasini takomillashtirish va kengaytirishga katta hissa qo‘shdi. Butler barqaror turizmni atrof-muhitni yomonlashtirmasdan yoki o‘zgartirmasdan, noma‘lum muddat davomida hayotiy bo‘lib qoladigan tarzda va miqyosda rivojlantiriladigan, qo‘llab-quvvatlanadigan turizm sifatida tushunish kerakligini ta‘kidladi [23]. Swarbrooke barqaror turizm bir vaqtning o‘zida iqtisodiy jihatdan samarali, ekologik jihatdan sezgir va ijtimoiy mas‘uliyatli bo‘lishi kerakligini ta‘kidladi - raqobatbardosh maqsadlar sifatida emas, balki integratsiyalashgan talablar sifatida [24]. Weaver barqarorlikka faqat kichik miqyosdagi muqobil turizm shakllari orqali erishish mumkin degan taxminga qarshi chiqib “ommaviy (mass) barqaror turizm” tushunchasini kiritdi [25].

*Hall* barqaror turizmni o‘zgaruvchan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga javob berishi kerak bo‘lgan tizimlarga asoslangan moslashuvchan faoliyat deb ta‘rifladi [26]. Ushbu dinamik yondashuv barqarorlikning o‘zgarimas holat emas, balki moslashish va takomillashtirishning doimiy jarayoni ekanligini tan oladi. Barqaror turizm tadqiqotlarida birinchilardan bo‘lgan Bramvel va Leyn mahalliy hamjamiyat ishtirokining muhimligini va uzoq muddatli rejalashtirish ehtiyojini ta‘kidlaganlar. Ularning ishlari barqaror turizmni rivojlantirish barcha manfaatdor tomonlarni qamrab oluvchi “ishtirokchilik asosidagi qarorlar” qabul qilish jarayonlarini talab qilishini ta‘kidlaydi [27].

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlari ham barqaror turizm nazariyasiga qimmatli hissa qo‘shdilar. Aleksandrova postsovet iqtisodiy o‘zgarishlari kontekstida barqaror turizmni tahlil qilib, bozorga asoslangan barqarorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydigan institutsional tizimlar yig‘indisi sifatida e‘tirof etgan [28]. Zorin va Kvartalnov Rossiyada barqarorlik tamoyillarini o‘z ichiga olgan turizm ta‘limi uchun nazariy asoslarni ishlab chiqqanlar [29]. O‘zbekistonlik

tadqiqotchilar ham xalqaro barqaror turizm konsepsiyalarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. I.S.Tuxliev va Abdullayeva barqarorlik jihatlariga e'tibor qaratgan holda turizmni rivojlantirishning milliy modellarini o'rganib chiqdilar [30]. N.S.Ibragimov O'zbekistondagi turistik hududlar uchun barqaror rivojlanish ustuvorliklarini tahlil qilib, barqaror turizm tushunchasini ilmiy amaliy jihatlarini ochib bergan [31].

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda barqaror turizmni rivojlantirishning konseptual asoslarini tahlil qilishga qaratilgan sifatli va nazariy tadqiqot dizayni qo'llaniladi. Metodologik yondashuv barqaror turizm bilan bog'liq akademik adabiyotlar, xalqaro siyosat hujjatlari va institutsional asoslarni tizimli ko'rib chiqish va tanqidiy tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot amalga oshirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari uchun mustahkam nazariy asos yaratish maqsadida barqaror turizmning evolyutsiyasi, asosiy o'lchamlari va yo'naltiruvchi tamoyillarini aniqlashga qaratilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Global pandemiya O'zbekiston turizm sektoriga misli ko'rilmagan darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xalqaro tashrif buyuruvchilar soni 2019-yildagi 6,7 milliondan 2020-yilda 1,5 milliongacha (-77,8%) kamaydi. Turizm eksporti 2020-yilda 350 million dollargacha pasaydi [2]. Sektorning YaIMga qo'shgan hissasi 2021-yilda 0,8% gacha pasaydi. Ushbu og'ir davrda hukumat tomonidan sohani inqirozdan saqlab qolish uchun bir qancha subsidiya va soliq imtiyozlari berildi [3].

Pandemiyadan so'ng O'zbekiston mintaqada turizm sohasini tez tiklanishiga erishgan davlatlardan biri bo'ldi. 2025-yilga kelib, xalqaro tashrif buyuruvchilar soni 11,7 millionga yetdi, bu pandemiyadan oldingi ko'rsatkichning 173,3%ni tashkil etadi [4]. 2024-yilda 10.1 million sayyoh qabul qilingan bo'lib, 2025-yilda 42,7% o'sishga erishilgan. Turizm xizmatlari eksporti 2025-yilda 4,8 milliard dollarga yetib, 36,4%ga oshganligi qayd etildi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

**O'zbekistonning asosiy turizm ko'rsatkichlari (2019-2025) [5]**

Ko'rsatkich	Yillar						
	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Xalqaro tashriflar (million)	6.75	1.60	1.90	5.20	6.63	10.1	11.7
Yildan-yilga o'sish, foizda	26	-77	21	178	27	52	15.8
Turizm eksporti (milliard dollar)	1.5	0.35	0.60	1.4	2.2	3.2	4.800
Har bir sayyoh uchun o'rtacha xarajatlar, AQSH dollar	195	219	315	269	332	317	410
<b>2019-yilga nisbatan tiklanish, foizda</b>	<b>100</b>	23.7	28.1	77.0	98.2	149.6	173.3




**1-rasm. O‘zbekiston turizm sektorining dinamikasi (2019-2025) [5]**

Talab bozorlari diversifikatsiya rivojlanayotgan bir paytda sezilarli darajada konsentratsiyani ko‘rsatmoqda. 2025-yilda qo‘shni MDH mamlakatlari kelganlar soni bo‘yicha ustunlik qilishdi: Qirg‘iziston (3,3 million), Qozog‘iston (2,7 million) va Tojikiston (2,7 million) umumiy kelganlarning taxminan 74 %ni tashkil qilgan. Mintaqaviy bo‘lmagan bozorlar orasida Xitoy 2025-yil sentabriga kelib 278,900 nafar tashrif buyuruvchini qayd etdi. 2024-yilgi darajaga nisbatan 22%ga ko‘p. Uzoq masofali bozorlar barqaror o‘rinni ko‘rsatdi. Turkiya (174,900), Hindiston (80,800), Koreya Respublikasi (46,300) kabilar Top 10 talik davlatlarga kiradi [6]. “O‘zbekiston 2030” milliy strategiyasida 2030-yilga kelib 20 million xorijiy sayyoh va 20 milliard dollarlik turizm xizmatlari eksporti maqsadlari belgilangan [7]. 2026-yilda jami tadbirkorlar tomonidan yangi servis obyektlarini ishga tushirish uchun 4 milliard dollarlik investitsiyalar kiritish rejalari mavjud.

O‘zbekistonning turar joy sektori sayyohlar soni oshishi bilan birga misli ko‘rilmagan darajada kengaydi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra 2024-yilda respublikada 2,383 ta mehmonxona va shunga o‘xshash turar joy muassasalari faoliyat yuritib, 38,075 ta xona jami 79,469 ta o‘rin taklif qilgan. Bu 2023-yilga nisbatan muassasalar sonining sezilarli darajada 71,8% ga oshganini anglatadi, xonalar 11,0% ga (3,759 ta birlik) va o‘rinlar 14,0% ga (9,764 ta birlik) oshgan [8]. An’anaviy mehmonxonalardan tashqari, ixtisoslashtirilgan turar joy binolari ham kengaydi. 2024-yilda 15,675 ta xona va 53,701 ta o‘rinli 651 ta ixtisoslashtirilgan turar joy binolari faoliyat yuritdi. Bundan tashqari, 566 ta individual va boshqa turar joy binolari (shu jumladan, mehmon uylari va yotoqxonalar) 4,564 ta xona va 12,511 ta o‘rinli binolarni taklif etib, bu 2023-yilga

nisbatan binolar sonining 35,4% ga oshganini bildiradi [9]. 2025-yil oxiriga kelib, Turizm qo‘mitasi butun mamlakat bo‘ylab turar joy binolarining umumiy soni 6,861 taga yetganini va 184,000 ming o‘rinli binolarni taklif qilganini xabar qildi (2-rasm), ikki yil ichida sig‘imning deyarli ikki baravar oshganini ko‘rish mumkin [10]. Albatta raqamlarning o‘shishiga hukumat tomonidan imtiyozlarning yaratilgani ham katta turtki bermoqda.



**2-rasm. Joylashtirish maskanlari soni va aeroport tashuvlarining rivojlanish tendensiyasi[12]**

Aviatsiya infratuzilmasi tobora ortib borayotgan sayyohlik oqimini qondirish uchun jiddiy modernizatsiya qilinmoqda. O‘zbekiston aeroportlari 2024-yilni rekord darajadagi 15,5 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish bilan yakunladilar, bu o‘tgan yilga nisbatan 15% ga ko‘pdir. Jami reyslar 113,622 taga yetib 33%ga o‘tdi (80,213 ta xalqaro, 33,409 ta ichki) (2-rasm). Yuk tashish 23% ga o‘shib, 87,461 tonnani tashkil etdi [11]. 2025-yilda faqat Toshkent xalqaro aeroporti 62,549 ta xalqaro reyslarni amalga oshirish orqali 9,986,445 yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatdi [12].

O‘zbekistonning yuqori tezlikdagi temir yo‘l tarmog‘i muhim turizm infratuzilmasi aktivini ifodalaydi. Ispaniyaning Talgo 250 uskunasi bilan foydalangan holda soatiga 250 km tezlikda harakatlanadigan Afrosiyob yuqori tezlikdagi poyezdlari hozirda Toshkent-Samarqand (2 soat 8 daqiqa) va Toshkent-Buxoro (3 soat 20 daqiqadan 4 soatgacha, bu mavsumga qarab) yo‘nalishlarini bog‘laydi. 2024-yil iyun oyida O‘zbekiston Hyundai Rotem kompaniyasidan “Jaloliddin Manguberdi” deb nomlanadigan qo‘shimcha oltita yuqori tezlikdagi poyezd sotib oldi. Temiryo‘l tarmog‘ini kengaytirish maqsadida 465 kilometrlik Buxoro-Urganch-Xiva liniyasini elektrlashtirish 2025-yilda yakunlandi. 2026-yilga kelib Xivaga va 2026-yil oxiriga kelib Nukusga yuqori tezlikdagi qatnov yo‘lga qo‘yilishi kutilmoqda [13]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2025-yildagi PQ-391-son “2030-yilga qadar temir yo‘l transportida mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga ko‘ra 2030-yilgacha temir yo‘l transportida mahalliy yo‘nalishlarda yillik yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichini 10,5 mln nafardan 23,5

mln nafarga, elektropoyezdlar qatnovi tashkil etilgan yoʻnalishlar sonini 40 tadan 53 taga yetkazish belgilangan [14]. Bu esa temir yoʻl transportini barqaror turizm mobilligining markaziga aylantiradi.

Turizm xizmatlari ekotizimi ham oʻz navbatida tashrif buyuruvchilar sonining oʻsishini qoʻllab-quvvatlash uchun sezilarli darajada kengaydi. 2024-yilda Oʻzbekistonda 743 ta sayyohlik kompaniyasi va tashkiloti faoliyat yuritib, 1,97 million mijozga xizmat koʻrsatdi va 601,500 ta turistik turlarni sotgan. Oldingi yilga nisbatan kompaniyalar soni 25,3% ga, xizmat koʻrsatilgan mijozlar soni 70,5% ga va sotilgan turlar soni 2,3 baravarga oshgan [15]. Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra 2025-yil yanvar-avgust oylarida sayyohlik agentliklari, turoperatorlar, bronlash va boshqa tegishli xizmatlar tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmi 2,2 trillion soʻmni tashkil etgan [16].

Dolzarb hisoblangan raqamlashtirish sohasida bir qator islohotlar olib borilgan. 2024-yil Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 820-son “Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” qaroriga muvofiq turizm qoʻmitasi mehmonxonalarni bron qilish, chiptalarni sotib olish, raqamli identifikatsiya va turizm xizmatlarini yagona ekotizimga birlashtirgan Milliy Yagona Turizm Platformasini sayohat.uz ni ishga tushirdi [17]. Ushbu interaktiv turistik xaritalar, raqamli sayohat kartalari va hunarmandlar uchun naqd pulsiz toʻlov tizimlari joriy etish imkonini beradi. Raqamli yengilliklar sayyohlar oqimini yaxshiroq monitoring qilish, qogʻozga asoslangan tranzaksiyalarni kamaytirish va maʼlumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni osonlashtirish orqali barqaror turizmni boshqarishni qoʻllab-quvvatlaydi. Raqamlar tahlili asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilgan deb xulosa qilishimiz mumkin.

Oʻzbekiston hududlari boʻyicha turizm infratuzilmasi tahlilidan soʻng, respublikaning 14 ta maʼmuriy mintaqasi boʻyicha turistik oqimlarning geografik tarqalishi, turar joy sigʻimi va iqtisodiy holatni tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Milliy statistika qoʻmitasining 2024-yilgi mintaqaviy maʼlumotlari mintaqalar boʻyicha turar joy infratuzilmasida sezilarli tafovutlarni koʻrsatadi. Toshkent shahri 14,211 xona va 28,348 oʻrinli 844 ta mehmonxona bilan yetakchilik qiladi, bu esa yiliga 1,27 million mehmonni qabul qiladi. Samarqand 361 ta mehmonxona, 6,603 ta xona va 428,400 mehmonni qabul qilish bilan ikkinchi oʻrinda turadi. Buxoro 250 ta mehmonxona va 267,200 mehmon bilan undan keyin turadi, Xorazm (Xiva bilan birga) esa 177,200 mehmonga xizmat koʻrsatadigan 100 ta mehmonxonaga ega. Chekka hududlar natijalar kamroq boʻlib Sirdaryoda 26 ta mehmonxona (33,800 mehmon), Navoiyda 36 ta mehmonxona (48,300 mehmon) va Qoraqalpogʻistonda 52 ta mehmonxona (38,400 mehmon) mavjud (2-jadval) [18].

Ipak yoʻlining muhim manzillari boʻlgan Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro 2024-yilda mehmonxonalarga joylashtirilgan barcha mehmonlarning 68,6% ni tashkil qiladi (2-jadval). Xorazm va Toshkent viloyatini qoʻshganda eng yaxshi beshta yoʻnalish umumiy turar joy faoliyatining 80,0% ni tashkil qiladi. Samarqanddagi Registon ansamblining oʻzi 1 milliondan ortiq tashrif buyuruvchini jalb qilmoqda. Bu

konsentratsiya madaniy-meros turizmining ustunligini aks ettirib YUNESKONing Jahon merosi obyektlari asosiy diqqatga sazovor joylar ekanligini ko‘rsatadi. Tahlil turizm faoliyatining sezilarli darajada geografik jihatdan jamlanganligini ko‘rsatadi, bu esa barqaror rivojlanishga ta’sir qiladi. Sayyohlarning meros obyektlariga ommaviy tashrifini samarali infratuzilma orqali nazorat qilish imkonini bo‘lsada, u meros obyektlariga ortiqcha turizm bosimi, iqtisodiy foydaning notekis taqsimlanishi va chekka hududlarda turizm salohiyatidan to‘liq foydalanilmaslik kabi xavflarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu nomutanosibliklar muvozanatli mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantiradigan maqsadli tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar orqali hal qilinishi kerak. Chuni O‘zbekistonning Ipak yo‘li merosiga tashrif buyuruvchilarni sifatli xizmat bilan birga merosning haqiqiylikini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi.

**2-jadval.**

**Turizm infratuzilmasi va faoliyatining mintaqaviy taqsimoti (2024)<sup>1</sup>**

Hudud	Mehmonxonalar	Xonalar soni	Yotoq soni	Mehmonlar (ming nafar)	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	844	14,211	28,348	1,270.0	44,3
Samarqand	361	6,603	13,827	428,4	15,0
Buxoro	250	3,980	8,423	267,2	9,3
Xorazm (Xiva)	100	2,441	4,955	177,2	6,2
Toshkent viloyati	116	1,865	3,928	150,2	5,2
Farg‘ona	280	1,541	5,421	81,2	2,8
Boshqa 8 ta hudud	432	7,434	14,567	490,1	17,1
<b>Jami</b>	<b>2,383</b>	<b>38,075</b>	<b>79,469</b>	<b>2,864.3</b>	<b>100</b>

Turizmning milliy iqtisodiy ishlab chiqarish va bandlikka qo‘shgan hissasini miqdoriy jihatdan baholash sektorning strategik ahamiyatini tushunish va barqaror rivojlanishga investitsiyalarni davom ettirishni oqlash uchun juda muhimdir. Iqtisodiy ta’sir tadqiqotiga ko‘ra 2025-yilda sayohat va turizmning O‘zbekiston YaIMga hissasi 4,8 milliard so‘mni (YaIMning 3.3%) tashkil etdi (3-jadval). Bu asosan mehmonxonalar, sayyohlik agentliklari, aviakompaniyalar va boshqa yo‘lovchi tashish xizmatlari kabi sohalar tomonidan yaratilgan iqtisodiy faollikni aks ettiradi. Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra 2030-yilga borib sohaning YaIM dagi ulushini 7 foziga yetkazish maqsad qilingan [19].

O‘zbekiston turizm sektorini har tomonlama tadqiq qilish tashqi imkoniyatlar va tahdidlar bilan bir qatorda ichki kuchli va zaif tomonlarini tizimli tahlil qilishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib SWOT tahlilini barqaror turizm nuqtai nazaridan olib bordik. Unda mavjud sharoitlar uzoq muddatli ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishni qanday qo‘llab-quvvatlashi yoki to‘sqinlik qilishi ko‘rib chiqildi. Tahlil strategik tavsiyalar uchun asos yaratish maqsadida akademik tadqiqotlar, sanoat hisobotlari va hukumat hujjatlaridan olingan natijalarni umumlashtiradi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi (2025) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**3-jadval.**
**O‘zbekiston turizm va iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2016-2025)<sup>1</sup>**

Yil	Sayyohlar, mln	Eksport, mlrd AQSH dollar	YaIM, nominal, mlrd AQSH dollar	YaIM o‘sishi, foizda	Jon boshiga YaIM, AQSH dollar	Turizm ulushi, foizda
2016	2.0	0.43	85.7	5.9	2,713	0.5
2017	2.7	0.55	69.7	4.4	2,170	0.8
2018	5.3	1.04	58.7	5.6	1,797	1.8
2019	6.75	1.50	67.3	6.8	2,024	2.2
2020	1.60	0.35	66.4	1.6	1,960	0.5
2021	1.90	0.60	77.3	8.0	2,238	0.8
2022	5.20	1.40	90.1	6.0	2,555	1.6
2023	6.63	2.20	102.6	6.3	2,849	2.1
2024	10.1	3.20	115.0	6.5	3,113	2.8
2025	11.7	4.80	145.0	7.7	3,846	3.3

SWOT tahlili sektorning uzoq muddatli barqarorligi uchun e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan barqarorlik muammolarini ochib beradi. Karimov va boshqalar olimlar tadqiqotlarida ham shunga yaqin natijalarni kuzatish mumkin. Ular uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan barqaror bo‘lmagan ijtimoiy va ekologik amaliyotlarni aniqlaganlar. Tadqiqotda turizmning tez sur‘atlar bilan kengayishiga qaramay, sektor YaIMga kichik hissa qo‘shishi, o‘rtacha sayyohlik xarajatlari pastligi va qisqa muddatli qolishlar (4 kun) qayd etilishi samaradorlik muammolarini ko‘rsatishi ta’kidlangan [20].

**4-jadval.**
**O‘zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirishning SWOT tahlili<sup>2</sup>**

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
S1. Boy meros: 7 ta YuNESKOning Jahon merosi obyektlari, 8000 dan ortiq tarixiy yodgorliklar S2. Hukumatning qat’iy siyosati, 2030yillarga mo‘ljallangan turizm strategiyasi. S3. Infratuzilmaning tez o‘sishi: mehmonxonalar, tashuvlar, sayyohlik agentliklari. S4. Xalqaro e’tirof va turli reytinglarda ilgarilash. S5. Vizalarni liberallashtirish: 94 ta mamlakat fuqarolariga vizasiz rejimni jori qilinishi, 56 ta mamlakat uchun elektron viza tashkil etilishi. S6. Turli turistik resurslarga boyligi. Madaniy meros, tabiiy meros. S7. Kuchli xavfsizlik indeksi.	W1. Geografik konsentratsiya, hozirda madaniy meros uchun asosiy tashriflar amalga oshmoqda, bu asosiy tarixiy shaharlarga to‘g‘ri keladi. W2. Qolish uzoqligini kamligi va kam xarajat qiladigan sayyohlar (2025-yilda o‘rtacha 410 AQSH\$). W3. Ishchi kuchi ko‘nikmalaridagi kamchiliklar, bu asosan chekka hududlarda kuzatiladi. W4. Mintaqaviy infratuzilmadagi kamchiliklar mavjud. Yomon yo‘llar, elektr energiyasi, chekka hududlardagi xizmatlar. W5. Kuchli bahor/kuzgi mavsumiylik, qishki quvvatlardan to‘liq foydalanilmaydi. W6. Atrof-muhitni monitoring qilish tizimlarining yetarli emasligi. W7. Merosni tijoratlashtirish xavfi mavjud bo‘lib ommaviy turizm haqiqiylikka tahdid solmoqda.

<sup>1</sup> muallif tomonidan worldometer, Turizm qo‘mitasi, president.uz hukumat portali tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
O1. Orol dengizi mintaqasi, Nurota tog‘lari, Chimyon kabi boshqa hududlarda diversifikatsiya salohiyati. O2. Samarqand, Buxoroda ziyorat destinatsiyalari uchun turizm bozorini kengaytirish. O3. Ipak yo‘li mintaqaviy hamkorligi, Markaziy Osiyo turistik halqasi, ko‘p mamlakatli marshrutlar O4. Hududiy yaqinroqda bo‘lgan Xitoy bozorini kengaytirish. O5. Raqamli innovatsiyalar: sayohat.uz platformasi, elektron bronlash, hunarmandlar uchun naqd pulsiz to‘lovlar. O6. Yuqori tezlikdagi temir yo‘lni kengaytirish rejalari O7. YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.	T1. Ommaviy tashriflar natijasida meros obyektlarining degradatsiyasi. T2. Orol dengizi inqirozi, suv tanqisligi, cho‘llanish bosimi. T3. Iqlim o‘zgarishi ta’siri, muzliklarning erishi, ekstremal harorat, o‘zgaruvchan vegetatsiya fasllari. T4. Mintaqaviy raqobat, ya’ni Qozog‘iston (15,3 million sayyoh), Qirg‘iziston (8,6 million) raqobatni kuchaytirmoqda. T5. Tashqi zarbalarning zaifligi. Pandemiya sektorning zaifligini ko‘rsatdi (2020-yilda -77,8%). T6. Geosiyosiy noaniqliklar, uzoq muddatli bozorlarga ta’sir qiluvchi mintaqaviy barqarorlik muammolari. T7. Uglarod izining o‘ssishi, iqlimning yomonlashib borishi.

Atrof-muhit barqarorligi o‘lchovi. Orol dengizi inqirozi ham chuqur ekologik muammo bo‘lib, bir vaqtning o‘zida yangi ekoturizm imkoniyatini anglatadi. Dunyoda to‘rtinchi eng katta ko‘l bo‘lgan Orol o‘z maydonining 90% dan ortig‘ini yo‘qotdi va natijada Orolqum cho‘li (4 million gektardan ortiq) shakllandi. Mintaqa ekoturizm orqali o‘zini qayta kashf etmoqda. 2025-yilgi 4-6-aprel kunlari o‘tkazilgan Orol madaniyati sammiti ekologik ta’lim va madaniy merosni qadrlashga o‘tish tashabbuslarini ilgari surdi [21]. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi qo‘shimcha tahdidlarni keltirib chiqarmoqda, xususan mintaqaning harorati keskin oshib bormoqda va Tyan-Shan tog‘larida muzliklarning erishi tezlashmoqda, bu esa qishloq xo‘jaligi va turizm uchun muhim bo‘lgan suv resurslariga ta’sir qilmoqda.

Ijtimoiy-madaniy barqarorlik o‘lchovi. Registon maydoni, Buxoro tarixiy markazi kabi mashhur joylarga yiliga 1 milliondan ortiq tashrif buyuruvchilarning to‘planishi merosni saqlash va madaniy haqiqiylik borasida xavotirlarni kuchaytiradi. Akademik adabiyotlarda madaniy merosning tijoratlashtirilishi va ommaviy turizmning kirib kelishi meros yo‘nalishlarining noyob o‘ziga xosligiga, haqiqiylikiga tahdid solishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy-amaliy asoslangan tadqiqotlar mavjud. Turizm sohasida 70,000 ga yaqin kishi faoliyat yuritadi [22]. Bu esa to‘g‘ri boshqarilgan taqdirda albatta ijobiy ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil jarayonida O‘zbekiston zarur hollarda “miqdordan ko‘ra sifat” strategiyasini amalga oshirishini maqsadga muvofiq deb bilamiz. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- meros markazlariga bosimni kamaytirish uchun geografik diversifikatsiya;
- mahsulotlarni ekoturizm, CBT, ziyorat va sarguzasht segmentlariga diversifikatsiya qilish;
- qishki turizmni rivojlantirish orqali mavsumiy taqsimot;
- qolish muddatini va har bir sayyoh uchun xarajatlarni ko‘paytirish orqali qiymatni oshirish.

Ushbu SWOT tahlili shuni ta'kidlaydiki, O'zbekiston ajoyib turizm aktivlariga ega va sezilarli o'sishga erishgan bo'lsa-da, barqaror rivojlanish kengayishni tabiatni muhofaza qilish bilan muvozanatlashtirishni, manfaatlarni mintaqalar va jamoalar o'rtasida adolatli taqsimlashni va ekologik va tashqi ta'sirlarga qarshi turishni talab qiladi. Keyingi bo'limlarda ko'rib chiqilgan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar turizmning 2030-yilga mo'ljallangan Barqaror Taraqqiyot Maqsadlariga ijobiy hissa qo'shishini ta'minlash bilan birga, tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qiladigan madaniy va tabiiy merosni himoya qilish uchun ushbu strategik ustuvorliklarni hal qilishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Туризм в Узбекистане. 2019: информационно-аналитический обзор / Государственный комитет Республики Узбекистан по развитию туризма ; подготовлен Информационно-аналитическим управлением совместно с «Silk Road Office». - Ташкент, 2019. - 28 с.
2. 2020-yil O'zbekistonda 261 mln dollarlik turizm xizmati ko'rsatilgan // Kun.uz. - 09.01.2021. - URL: <https://kun.uz/news/2021/01/09/2020-yil-ozbekistonda-261-mln-dollarlik-turizm-xizmati-korsatilgan>
3. Туризмни ривожлантириш ва спортни оммалаштириш масалалари муҳокама қилинди // President.uz (расмий веб-сайт). - 09.12.2020. - URL: <https://www.president.uz/uz/lists/view/3999>
4. Turizm va madaniyat sohasidagi masalalar muhokama qilindi // President.uz (rasmiy veb-sayti). - 15.01.2026. - URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8860>
5. UN Tourism Tourism Data Dashboard / UN Tourism. - Madrid: UN Tourism, 2025. - URL: <https://www.untourism.int/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboar>
6. СТАТИСТИКА | Rasmiy kanal. Post №7061 // Telegram. - @statistika\_rasmiy (Rasmiy kanal, Milliy statistika qo'mitasi). - 2026. - URL: [https://t.me/statistika\\_rasmiy/7061](https://t.me/statistika_rasmiy/7061)
7. Шавкат Мирзиёев. Обращение Президента Республики Узбекистан к Олий Мажлису и народу Узбекистана [Электронный ресурс] // President.uz (официальный веб-сайт). - 26.12.2025. - URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
8. Development of tourism and recreation / National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 12.08.2025. - URL: [https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation\\_p37860.pdf](https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf)
9. Development of tourism and recreation / National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 12.08.2025. - URL: [https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation\\_p37860.pdf](https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf)
10. Raxmonkulova, S. UNWTO: Uzbekistan ranks among world's fastest-growing tourism destinations in 2025. Euronews.19.12.2025.URL: <https://www.euronews.com/travel/2025/12/19/unwto-uzbekistan-ranks-among-worlds-fastest-growing-tourism-destinations-in-2025>
11. UZBAIRPORTSUZ. Post №6650 // Telegram rasmiy kanali. - 2026. - URL: <https://t.me/uzbairportsuz/6650>

12. UZBAIRPORTSUZ. Post №8207 // Telegram rasmiy kanali. - 2026. - URL: <https://t.me/uzbairportsuz/8207>
13. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati. Loyihani moliyalashtirish jamiyat mablag‘lari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy manbalar hisobidan amalga oshiriladi // Informatson xizmat. - 2026. - URL: [https://railway.uz/uz/informatsonnaya\\_sluzhba/novosti/34170/](https://railway.uz/uz/informatsonnaya_sluzhba/novosti/34170/)
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabr PQ-391-son “2030-yilga qadar temir yo‘l transportida mahalliy yo‘nalishlarda yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori <https://lex.uz/uz/docs/7961816>
15. Development of tourism and recreation / National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 12.08.2025. - URL: [https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation\\_p37860.pdf](https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf)
16. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. Статистика | Rasmiy kanal [Telegram-kanal]. Post №1369. - Telegram. - URL: [https://t.me/statistika\\_ru/1369](https://t.me/statistika_ru/1369)
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2024-yil 7- dekabr 820-son “Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7252698>
18. Development of tourism and recreation / National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 12.08.2025. - URL: [https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation\\_p37860.pdf](https://stat.uz/img/news/tourism-and-recreation_p37860.pdf)
19. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Xorijiy turistlar sonini 2030-yilgacha 20 million nafarga yetkazish - ustuvor vazifa // Turizm qo‘mitasi, Hukumat.uz.; <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/120827>
20. Karimov M., Okmullaev R., Marty P., Saidmamatov O. Tourism Sustainability in Uzbekistan: Challenges and Opportunities Along the Silk Road // *Economies*. - 2025. - Vol. 13, No. 9. - Art. 250. - DOI: 10.3390/economies13090250
21. Aral Culture Summit. Rasmiy veb-sayt - ARAL CULTURE SUMMIT (ixtisoslashgan tashabbus bo‘yicha ma’lumotlar va dastur) // [aralculturesummit.uz](http://aralculturesummit.uz).
22. Yunusova Ug‘iloy va boshq. Turizm sohasining aholi bandlik darajasini oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // *Advanced Economics and Pedagogical Technologies*. - 2025. - Vol. 2, No. 3. - P. 642-647. - DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp642-647.
23. Butler, R. W. Sustainable Tourism: A State-of-the-Art Review / R. W. Butler // *Tourism Geographies*. - 1999. - Vol. 1, No. 1. - P. 7-25.
24. Swarbrooke, J. Sustainable Tourism Management / J. Swarbrooke. - Wallingford : CABI Publishing, 1999. - 371 p.
25. Weaver, D. B. Sustainable Tourism: Theory and Practice / D. B. Weaver. - Oxford : Elsevier Butterworth-Heinemann, 2006. - 240 p.
26. Hall, C. M. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships / C. M. Hall. - 2nd ed. - Harlow: Pearson Education, 2008. - 302 p.
27. Bramwell, B. Tourism and Sustainable Development: A Critical Review / B. Bramwell, B. Lane // *Journal of Sustainable Tourism*. - 1993. - Vol. 1, No. 1. - P. 1-5.

28. Александрова, А. Ю. Международный туризм: учебник / А. Ю. Александрова. - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва : КноРус, 2016. - 460 с.
29. Зорин, И. В. Энциклопедия туризма: справочник / И. В. Зорин, В. А. Квартальнов. - Москва : Финансы и статистика, 2001. - 368 с.с.
30. Tuxliyev, N. Turizm nazariyasi va amaliyoti / N. Tuxliyev, D. Abdullayeva. - Toshkent : Fan, 2006. - 240 b.
31. Ibragimov, N. Turistik hududlarni barqaror rivojlantirish ustuvorliklari / N. Ibragimov // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2020. - № 3. - B. 45-56.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**